

PRAGMALINGVISTIKANING ZAMONAVIY TARAQQIYOTI

Sharifjonova Sarvinoz Nodirbek qizi

Namangan davlat universiteti Magistratura mutaxassisligi

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya:

Pragmatika yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib mazkur maqolada asoslanganki, pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalasi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: postindustrial jamiyat, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya.

Til jamiyatda muhim aloqa vositasi bo'lib, uning amaliy faoliyati ham shu til yordamida aloqa qiluvchilar hayotida asosiy o'rinni egallaydi. Tilning amaliy faoliyati inson nutqiy faoliyatida alohidalik sifatida yuzaga chiqadi. Shuning uchun so'zlovchining nutqida lisoniy bilim zahirasiidan foydalanish qobiliyati, tafakkuri, milliy madaniyati, milliy qadriyatlar va ruhiy olami ifodalanadi. Shu jarayon bilan bog'liq tilning amaliy faoliyatini tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik fani uchun dolzarbdir. Chunki axborotga bo'lgan ehtiyoj kuchayib borayotgan postindustrial jamiyatda tilning shaxs hayotidagi o'rni, ahamiyati masalasiga yangicha yondashuvlar vujudga keladi. Bu yondashuvlar markazida til insonlarning nutqiy muloqot jarayonini shakllantiruvchi vosita sifatida o'rganiladi. Shuningdek, hozirgi davrda yuksalib borayotgan jamiyat va uning a'zolari dunyoqarashida milliy ong va madaniyat, milliy o'zlik va mafkura tushunchalarining mohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun inson ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan —harakatdagi nutq — muloqotni tadqiq etish pragmalingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi lingvistik tarmoqlar uchun dolzarb sanaladi. Shaxsning obyektiv olamdagi barcha ijtimoiy harakatlari nutqiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Shu bois pragmatik lingvistika fanning nazariy va amaliy tarmog'i sifatida insonning ijtimoiy



faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy muloqot, muloqot sistemasi, nutqiy vaziyat, nutqiy muloqot ishtirokchilariga xos xatti-harakat, kommunikativ maqsad bilan aloqador masalalarni o'rganadi. Pragmatik lingvistika tilshunoslikning yangi sohalaridan biridir. Uning shakllanishi Ch.Pirs, U.Djeyms, Ch.Morris singari olimlarning xizmati bilan bog'liq. Pragmatika grekcha "pragmas" so'zidan olingan bo'lib, "ish", "harakat" ma'nolarini bildiradi. Pragmatika atamasi fanga XX asrning 30-yillarida Ch.Morris tomonidan kiritilgan. U semiotikani semantika, sintaktika, pragmatika kabi tarkibiy qismlarga ajratdi.

Tilshunoslikda pragmatikaning yangi tadqiqot obyekti sifatida yuzaga kelishi va ajratilishi Ch.Pirsning g'oyalari, Dj.Ostin va Dj.Syorlning mantiqiy-falsafiy qarashlari, P.Graysning pragmatik nazariyasi, L.Linskiy va P.Stronsonning referensiya nazariyasi bilan uzviy aloqador. Pragmatik lingvistika ilmiy manbalarda pragmatik tilshunoslik yoki lingvistik pragmatika nomlari bilan yuritiladi. Bu tarmoq qanday atalishidan qat'iy-nazar, so'zlovchi ijtimoiy faoliyatining nutqdagi real ifodasini qamrab oladi. Pragmalingvistikani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratish va uning o'zgarish ob'ekti, predmetini aniqlash uchun lisoniy birliklardan turli kommunikativ muhitda pragmatik qiymati, "bahosi", mundarijasining namoyon bo'lishini taminlovchi omillarni izlamoq darkor. Lisoniy birliklardan har qanday sharoitda namoyon bo'ladigan belgilari ularning ontologik vazifaviy xususiyatlari na'munasidir. Shunday qilib, pragmatikaning umumiy ta'rifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart - sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa tushunchasi lison tahliliga pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir. Aminmizki, pragmalingvistikaning xuddi shu yo'nalishdagi taraqqiyoti nazariy tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya o'rtasida mavjud bo'lib turgan "uzilish"larni bir oz toraytiradi. Pragmalingvistika tadqiqot



predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deyxsis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o'z "ichki" sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismning batafsil yoritilishi, o'rganilishida namoyon bo'ladi. Pragmatik lingvistika o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Tadqiqotchilarning semantikaga qiziqishi natijasida lingvistik nazariyalar rivojiga ta'sir etgan bir qator omillar pragmatik lingvistikani mustaqil sohaga aylantirdi. Chunonchi, lingvistikaning gap mazmuni – propozitsiyaga alohida diqqat qiluvchi mantiq bilan munosabatining yangi pog'onaga ko'tarilishi, til va nutqning mazmun tomoniga umumiy burilishi, nutq faoliyatining pragmatik komponentiga e'tiborning kuchayishi, gapga maxsus ma'nosiga ega til belgisi sifatida qarashning paydo bo'lishi va sintaktik transformatsiya nazariyasining vujudga kelishi singari omillar turtki bo'ldi. Ma'noli birliklar onomasiologik va semasiologik nuqtayi nazardan o'rganilgan. Onomasiologik yo'nalishda obyektiv olamdagi makro va mikro olamlarning tilda qanday ifoda etilishi va har qaysi tilning o'ziga xos ifoda imkoniyatlari o'rganiladi. Shuni hisobga olib, tilni maydon sifatida o'rganishga e'tibor qilinadi. O'zbek tili pragmatikasi obyektiv olamdagi voqeyliklarni aks ettiruvchi elementlardan tashkil topib, funksional maydon sifatida ma'lum sistemaga birlashadi. Demak, til elementlari xususiy munosabatni ifodalash vazifasiga ko'ra pragmatik maydonni hosil qiladi. O'zbek tilshunosligida pragmatik lingvistika bo'yicha ba'zi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq muloqotda shaxs omili bilan bog'liq masalalar, jumladan, kommunikantlarning madaniy kompetensiyasi, nutqiy akt ishtirokchilarining o'zaro munosabati va axloqiy masalalarga ta'siri hamda muloqotni boshqarishi kabilar lingvistik pragmatikada yechimini kutayotgan muammolardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shahriyor Safarov. —Pragmalingvistikall. —Toshkentl, 2008.
2. Marufjon Yo'ldoshev. —Badiiy matn lingvopoetikasil. —Toshkentl, 2008.
3. Mamajonov A. Abdupattoev M. —Matn sintaksisil. —Farg'onall, 2002.
4. Hakimov M. K. —O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlaril. —Farg'onall, 2004.

